

## BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI UCHUN ELEKTRON LUG‘ATLAR YARATISHNING METODIK ASOSLARI

**Quvondiqov Shamshodjon Husniddin o‘g‘li**

GulDU, “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi  
(boshlang‘ich ta’lim)” yo‘nalishi 2-bosqich magistranti

[shamsnumberoneshams@gmail.com](mailto:shamsnumberoneshams@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

Axborot kommunikatsion texnologiyalari rivojlangan bugungi davrda bosma shakldagi lug‘atlarga nisbatan elektron lug‘atlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Elektron lug‘at yaratish ichki va tashqi aloqalar yig‘indisidagi murakkab tizimni loyihalash va uning tarkibiy qismlarini tashkil etishni o‘z ichiga oladi. Shuning barobarida, ayni paytda elektron lug‘atni loyihalash bosqichlarining yagona qat’iy tizimi mavjud emas. Shuningdek, elektron lug‘at tuzishning muhim bosqichlari texnologik va konseptual bo‘lib, bu tuzuvchidan alohida ahamiyatli yondashuvni talab qiladi. Ushbu maqolada lug‘atlar, elektron lug‘atlarni yaratish va ulardan foydalanish bo‘yicha tadqiqot olib borgan olimlarning ilmiy izlanishlari tahlil qilingan hamda O‘zbekiston sharoitida mavjud elektron lug‘atlar o‘rganilgan. Shuningdek, boshlang‘ich sinf darslarida elektron lug‘atlardan foydalanishning samaradorligi ko‘rsatib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** lug‘at, elektron lug‘at, imlo lug‘ati, izohli lug‘at, tarjima lug‘ati, AKT, elektron darslik, elektron o‘quv qo‘llanma.

## **METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF CREATING ELECTRONIC DICTIONARIES FOR PRIMARY CLASS STUDENTS**

**Kuvandikov son of Shamshodzhan Husniddin**

GulDU, master of the 2nd stage of the direction " theory and methodology of Education and training (primary education)"

[shamsnumberoneshams@gmail.com](mailto:shamsnumberoneshams@gmail.com)

### **ABSTRACT**

*In today’s era of advanced information and communication technologies, the use of electronic dictionaries is more effective than printed dictionaries. The creation of an electronic dictionary includes the design of a complex system of internal and external relations and the organization of its components. Therefore, at the moment, there is no single strict system of the stages of designing an electronic dictionary. Also, the important stages of creating an electronic dictionary are technological and*

*conceptual, which requires a special approach from the compiler. This article analyzes the scientific research of scientists who have conducted research on the creation and use of dictionaries, electronic dictionaries, and the existing electronic dictionaries in the conditions of Uzbekistan are studied. Also, the effectiveness of using electronic dictionaries in elementary school classes has been shown.*

**Key words:** dictionary, electronic dictionary, spelling dictionary, explanatory dictionary, translation dictionary, ICT, electronic textbook, electronic study guide.

**KIRISH.** Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quv jarayonini modernizatsiya qilish zarurati, birinchi navbatda, zamonaviy axborot texnologiyalarini doimiy ravishda takomillashtirishni talab etmoqda. Bu esa zamonaviy pedagogik texnologiyalar tizimidan foydalangan holda axborotni o‘qitish vositalaridan foydalanishga asoslangan va o‘qituvchilarning akademik sharoitlarda o‘quvchilarni keyingi ta’limga tayyorlash qobiliyatini ta’minlaydigan noan’anaviy o‘qitish usullarini ishlab chiqish va joriy etishni nazarda tutadi. Elektron darsliklar, o‘quv qo’llanmalar, lug‘atlar, interfaol o‘quv dasturlari, trenajyorlar va boshqalar axborotni o‘qitish vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 5-iyuldagagi “Elektron kutubxona to‘g‘risidagi namunaviy nizomni hamda axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlarida va kutubxonalarda to‘liq matnli elektron axborot-kutubxona resurslari fondini yaratish reja-jadvalini tasdiqlash haqida”gi 198-sonli qarorida elektron darsliklar, elektron o‘quv qo’llanmalar yaratish hamda mavjud bosma nashrlarni elektron holatda raqamlashtirishning mezonlari belgilab berilgan[1].

Elektron lug‘at - bu qog‘oz lug‘atlarda turli sabablarga ko‘ra talab qilinmaydigan ko‘plab samarali g‘oyalarni amalga oshirish va muomalaga kiritish mumkin bo‘lgan maxsus leksikografik obyekt[7].

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O.S.Rubleva yozma matnlarni tahlil qilish asosida lug‘atlarni tuzish ko‘p vaqt talab etadi va lug‘at bosma nashrga chiqqach, uning ma’lumotlari eskirib qolishi mumkinligini aytib o‘tgan. Shuning uchun ham lug‘at eskirishi mumkin. Elektron lug‘atlar - lingvistik madaniyat tashuvchilari uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat bilan tuzilgan va qisqa vaqt oralig‘ida yangilanadigan lug‘atlar hioblanadi, deya ta’kidlagan holda elektron lug‘atlarning afzalligini ko‘rsatib bergen.

Ushbu mavzuda tadqiqot olib borgan olimlar lug‘at yaratish proekti ustida izlanishlar olib borib, umumlashtirish va e’tibor darajasiga qarab, lug‘at yozuvlarining quyidagi turlari ajratganlar:

a) kirish maqolasida tanlangan bilim sohasi bo‘limlarining eng muhim tushunchalari, kontseptsiyaning o‘ziga xos xususiyatlari, uning xususiyatlari, mumkin

bo‘lgan tasniflari, ichki va sub’ektlararo aloqalar tavsiflanadi.

b) umumiy maqolada - fanning ma’lum bir bo‘limining asosiy atamalari, ma’lum bir tushunchalar guruhi, ularning mumkin bo‘lgan talqinlari va yozishga yondashuvlar tavsiflanadi;

v) konkretlashtiruvchi maqola - ma’lum bir tushunchalar guruhini tasniflash mezonidan ulardan foydalanishning aniq misollariga mantiqiy o‘tishni amalga oshiradi, bu atamalar guruhining xususiyatlarining qisqacha tavsifi;

d) nazariy maqolada - asosiy qoidalar, ushbu atamani qo‘llash asoslari, mumkin bo‘lgan tipologiyalar va tushunchaning nazariy ahamiyati mavjud;

e) amaliy maqolada - ushbu atamaning pedagogik vaziyatlarda qo‘llanilishining o‘ziga xos holatlari va xususiyatlari tasvirlangan, illyustratsion misollar yordamida tasvirlash mumkin[3].

## NATIJALAR

Olimlarning izlanishlari asosidagi xulosalarga tayanadigan bo‘lsa, axborot kommunikatsion texnologiyalari rivojlangan bugungi davrda bosma shakldagi lug‘atlarga nisbatan elektron lug‘atlar yaratishning samarali ekanligiga amin bo‘lamiz.

Lug‘at parametrlariga va uning yaratilish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar orasida leksikografik va tashqi faktorlar mavjud bo‘lib, bunda bиринчи faktor lug‘at foydalanuvchilarining ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq sanalsa, ikkinchi faktor haqiqiy sharoitlardan kelib chiqqan holda lug‘at loyihasini yaratishni taqozo etadi [4].

V.Shirokovning qayd etishicha, an’anaviy tarzda lug‘at yozushi kamida ikki komponentli hisoblanadi, ya’ni u registr (chap) va interpretativ (o‘ng) qismlardan iborat bo‘ladi. Chap yoki ro‘yxatga olish leksikografik qism bo‘lib, odatda, leksikografiya obyekti bo‘lgan tilning har qanday birligi bu qismni aks etirishi mumkin. Bunday lug‘aviy birliklar majmuyi uning registrini belgilaydi. Lug‘at yozuvining o‘ng qismining tuzilishi va mazmuni lug‘at turiga bog‘liq bo‘ladi: u tegishli ro‘yxatga olish birligining lingvistik tavsifini beradi (uning ma’nosи, boshqa tillarga tarjima qilish, leksik, grammatick xususiyatlar va b.q.) yoki nimani anglatishi haqida turli xil ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi [5].

L.Belyayevning fikricha, elektron lug‘at ma’lumotlar bazasi bo‘lib, unda har bir maqola guruhlashtirilgan matn sifatida taqdim etiladi. Bunday lug‘at qat’iy tuzilishi va ma’lumotlarni ifodalashning yuqori darajada rasmiylashtirilishi lozim [2].

Elektron lug‘at yaratish ichki va tashqi aloqalar yig‘indisidagi murakkab tizimni loyihalash va uning tarkibiy qismlarini tashkil etishni o‘z ichiga oladi. Shuning barobarida, ayni paytda elektron lug‘atni loyihalash bosqichlarining yagona qat’iy tizimi mavjud emas. Shuningdek, elektron lug‘at tuzishning muhim bosqichlari texnologik va konseptual bo‘lib, bu tuzuvchidan alohida ahamiyatli yondashuvni talab qiladi. Aks holda zamonaviy leksikografiya talablariga javob bermaydigan mahsulot

yaratilishiga olib kelishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, ta'lim jarayonida foydalanish uchun mo'ljallangan elektron lug'atlar ishlab chiqishda o'ta dolzarb bo'lib, tahliliy va konseptual bosqichdagi har qanday e'tiborsizlik, ehtiyyotsizlik ta'lim resursidan foydalanishda didaktik tamoyillarning buzilishiga olib keladi[6].

## MUHOKAMA

Boshlang'ich ta'limda o'tiladigan fanlar darsliklarida ham bir qancha ma'nosi kichik yoshdagi o'quvchilar uchun notanish bo'lgan so'zlar uchraydi. Har bir fan o'qituvchisi dars davomida ma'lum muddat shu so'zlarning ma'nosini tushuntiradi. Bu jarayonda ushbu so'z ma'nosining elektron holatdagi variantidan foydalanish vaqtini tejash va o'quvchilar xotirasida so'z ma'nosini saqlab qolish uchun nihoyatda samarali hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda bir qancha elektron lug'atlar mavjud. Ulardan imlo lug'ati, izohli lug'at, tarjima lug'atlaridan kundalik faoliyatimizda foydalanimiz.

**kitob**

1. Ma'lum matnli varaqlardan iborat, juzlab tikilgan, muqovalangan, hajmi 48 sahifadan kam bo'lmagan bosma (qadim qo'lyozma ham) asar.  
*Kitob magazini. Kitob savdosi. Kitob nashr etmoq. She'riy kitob. Geologiyaga oid kitob. Shaxmatga oid kitob.*
- Ahmad Husayn kitoblarni saralab, chamatdanga joyladi  
*Oybek, Nur qidirib*
- Hozir otaga qerashib turibman: choyxo'rlargazeta, kitob o'qib beraman.  
*A. Qahhor, Asror bobo*
- Kitobning muqovasi kurkam, kitobxon uni qo'ga olishi bilan bahridilli ochilib ketedi.  
*Gazetadan*
2. Umuman, ma'lum shaxs, voqe'a-hodisaga va boshqalarga oid tugal, odatda, nashr etishga (kitob bor'ishga) mo'ljallangan asar.  
*— Bu yaqinda katta kitobni yozib tugatadi, — deya davom etdi Zavqiy.*  
*K. Yashin, Hamza*
- Tez kunda dovrug'im olamga yoyilib ketsa-ya mening haqimda ham kitoblar yozishsha-ya.  
*X. To'staboyev, Shirin qovunlar mamlakati*

Izlanishlarimiz davomida guvoh bo'ldikki, aynan boshlang'ich sinflar uchun yaratilgan elektron lug'atlar mavjud emas. Biz tadqiqotimiz davomida shunday lug'atlar yaratish, ushbu lug'atlarda boshlang'ich sinf darsliklarida berilgan so'zlardan foydalanishga hamda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni qiziqtirish va e'tiborini jamlash uchun yorqin va animatsiyalarga boy bo'lgan dizayndan foydalanishga harakat qildik.

**XULOSA.** Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, boshlang'ich sinf darslarini tashkil etishda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga ma'nosi notanish bo'lgan so'zlar ma'nosini tushuntirishda elektron lug'atlardan foydalanish nihoyatda samarali hisoblanadi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Elektron kutubxona to‘g‘risidagi namunaviy nizomni hamda axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlarida va kutubxonalarda to‘liq matnli elektron axborot-kutubxona resurslari fondini yaratish reja-jadvalini tasdiqlash haqida”gi qarori. 2011-yil 5-iyul. 198-son. <https://lex.uz>.
2. Беляева Л.Н. Автоматизированная лексикография и потенциал прикладной лингвистики // Известия А. И. РГПУ имени Герцена. 2010.
3. Давыдова А.А. Проектирование электронных билингвальных словарей по педагогическим дисциплинам. Автореферат. Диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Смоленск -2013.
4. Кудашев И. S. проектирование переводных словарей специальных словарей. Хельсинки, 2007.
5. Лингвистико-информационные студии: Прази украинского мовноинформационческого Фонда Национальной академии наук Украины: 3-jild. лексикография Тлумачна. Книга 1. Киев, 2018.
6. Qulbulov Sh.T. Elektron lug‘at yaratishning konseptual bosqichi xususida. Ilmiy maqola. International scientific-online conference. <https://doi.org/10.5281/zenodo.5889415>
7. Рублева О.С. Слово в электронном словаре (с позиций пользователя электронными ресурсами). Автореферат. Диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Тверь-2010